



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 5/2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 5/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Zamira Ishonxo‘jayeva, Ra‘no Maxkamova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDAGI AHOLI EVAKUATSIYASI MASALALARI (R-314 FONDI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Dilrabo Babajanova XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTON YO‘L XO‘JALIGIDAGI TIZIMLI ISLOHOTLAR. (AVTOMOBIL YO‘LLARI* MISOLIDA).....	11
3. Jaxongir Inayatov MUSTAQILLIK YILLARIDA FOTOGRAFIYANING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA JAMOATCHILIK HAYOTIDAGI O‘RNI.....	18
4. Nurbek Matyakubov METROPOLITENLAR SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN.....	24
5. Nodira Radjabova “BUXORCHA” VA “MAVRIGIXONLIK”: ISTIQLOL YILLARIDA YUKSALISH, IJRO VA IJROCHILIK MAHORATI.....	30
6. Abdulxamid Anarbayev, Shukrullo Nasriddinov AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKINING TASHKIL ETILISHI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHTIRISHDAGI O‘RNI.....	38
7. Sevara Yusupova O‘ZBEKISTONDAGI KAM SONLI MILLAT VAKILLARINING IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTDAGI ISHTIROKI.....	43
8. Гулчехра Абдулхай ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИДА ТУРКИСТОН АССРНИНГ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА СОВЕТ ҒОЯВИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ ҚАРОР ТОПИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ (1925-1950 йиллар).....	46
9. Наргиза Каримова ВЫРАЩИВАНИЕ, ПРОИЗВОДСТВО И ТОРГОВЛЯ БАКАЛЕЙНЫМИ ТОВАРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД.....	58
10. Erkinjon Kenjayev XVI–XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA‘LIM TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: O‘QUV DASTURLARI VA SXOLASTIKA MUAMMOSI.....	63
11. Шоҳида Давурова ЎРТА ОСИЁ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ОЛИМЛАРИ ҲУЖЖАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ (кимёгар олимлар мисолида).....	67
12. Dilshod Xolmurodov, Shaxobiddin Yusupov O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRDAGI ME‘MORIY YODGORLIKLARI.....	74




Zamira Rayimovna Ishonxo'jayeva,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
tarix fanlari doktori, professor
ORCID: 0000-0002-8495-8122
E-mail: zamira.i@rambler.ru

Ra'no Aloviddin qizi Maxkamova,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
doktorant (PhD), tarix kafedrası
ORCID: 0009-0008-0914-4728
E-mail: ranomaxkamova082312@gmail.com
UDK: 94(575.1)"1941/1945":314.7

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRDAGI AHOLI EVAKUATSIYASI MASALALARI (R-314 FONDI MATERIALLARI ASOSIDA)

For citation: Zamira R. Ishonkhodjayeva, Rano A. Mahkamova. ISSUES OF EVACUATION OF THE POPULATION IN THE UZBEKISTAN SSR DURING THE YEARS OF WORLD WAR II (BASED ON MATERIALS FROM THE R-314 FUND). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20401562>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSR hududiga evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish masalalari tahlil qilingan. Xususan, 1941-yil 13-noyabr holatiga ko'ra ishlab chiqilgan dastlabki va qo'shimcha rejalar asosida viloyatlar kesimida evakuatsiya qilingan aholining taqsimlanishi yoritilgan. Tadqiqotda Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona va boshqa hududlarga joylashtirilgan aholi soni hamda respublikaning front ortidagi strategik hudud sifatidagi o'rni arxiv materiallari asosida ochib berilgan. Shuningdek, urush davrida aholini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish va evakuatsiya jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq muammolar ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston SSR, evakuatsiya, evakuatsiya qilingan aholi, front orti, aholini joylashtirish, viloyatlar, arxiv materiallari, demografik jarayonlar, urush yillari.

Ишонходжаева Замира Раимовна,
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
доктор исторических наук, профессор
ОРЦИД: 0000-0002-8495-8122
Электронная почта: zamira.i@rambler.ru
Махкамова Рано Аловиддин кызы,
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Докторант (PhD), исторический факультет
ОРЦИД: 0009-0008-0914-4728

ВОПРОСЫ ЭВАКУАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (ПО МАТЕРИАЛАМ Р-314) ФОНД)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются вопросы переселения населения, эвакуированного на территорию Узбекской ССР во время Второй мировой войны. В частности, освещается распределение эвакуированного населения по регионам на основе предварительных и дополнительных планов, разработанных по состоянию на 13 ноября 1941 года. Исследование раскрывает численность переселенного населения в Самарканде, Бухаре, Ташкенте, Фергане и других регионах, а также положение республики как стратегически важного района в тылу фронта на основе архивных материалов. Также анализируются проблемы, связанные с расширением возможностей приема населения и организацией эвакуационных процессов в военное время.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекская ССР, эвакуация, эвакуированное население, тыл, переселение населения, регионы, архивные материалы, демографические процессы, военные годы.

Ishonkhojayeva Zamira Rayimovna,

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Doctor of Historical Sciences, Professor

ORCID: 0000-0002-8495-8122

E-mail: zamira.i@rambler.ru

Makhkamova Rano Aloviddin qizi,

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Doctoral student (PhD), Department of History

ORCID: 0009-0008-0914-4728

E-mail: ranomaxkamova082312@gmail.com

UDK: 94(575.1)"1941/1945":314.7

ISSUES OF POPULATION EVACUATION IN THE UZBEKISTAN SSR DURING THE YEARS OF WORLD WAR II (BASED ON MATERIALS FROM THE R-314 FUND)

ABSTARCT

This article analyzes the issues of resettlement of the population evacuated to the territory of the Uzbek SSR during the Second World War. In particular, the distribution of the evacuated population by region based on the preliminary and additional plans developed as of November 13, 1941 is highlighted. The study reveals the number of people resettled in Samarkand, Bukhara, Tashkent, Fergana and other regions, as well as the republic's position as a strategic area behind the front line based on archival materials. It also analyzes the problems associated with expanding the capacity to receive the population and organizing evacuation processes during the war.

Index Terms: Second World War, Uzbek SSR, evacuation, evacuated population, rear area, population resettlement, regions, archival materials, demographic processes, war years.

1. Dolzarbligi:

Ikkinchi jahon urushi tarixi barcha davrlar uchun dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Urush yillariga oid ko'plab ilmiy va ommabop asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu mavzu bilan bog'liq ma'lumotlar va tadqiqotlar hali to'liq yakuniga yetmagan. Chunki urush insoniyat tarixidagi eng yirik siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalardan biri sifatida doimo ilmiy tadqiqotlar markazida

bo‘lib qoladi. Ayniqsa, urush davridagi aholi migratsiyasi, safarbarlik va front orti faoliyatini o‘rganish bugungi kunda ham tarixshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi:

Urush davrining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, orqa front faoliyati hamda safarbarlik jarayonlarini o‘rganishga mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar katta hissa qo‘shgan. Jumladan, M.N. Potemkina, V.A. Yuryev, G.A. Kumanev, A.E. Batyrov, shuningdek M.I. Lixomanov, L.T. Pozina va E.I. Finogenovlarning[1] ilmiy ishlari alohida e‘tiborga loyiqdir. Ushbu tadqiqotlarda sovet jamiyatining urush yillaridagi transformatsiyasi, mehnat resurslarining safarbar etilishi hamda iqtisodiyotning harbiy sharoitga moslashuvi masalalari yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushida g‘alabani ta‘minlashdagi o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham respublikaning umumittifoq miqyosidagi hissasi tahlil qilingan. Xususan, sanoat korxonalarini sharqiy hududlarga ko‘chirish, evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish, frontni oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta‘minlash masalalari ilmiy adabiyotlarda ma‘lum darajada yoritilgan. O‘zbekiston SSRning evakuatsiya qilinganlarni qabul qilishdagi o‘rni respublikaning “orqa front” hududi sifatidagi strategik ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmay, urush yillaridagi ijtimoiy birdamlik va insonparvarlik masalalarini ham yangi nuqtayi nazardan tadqiq etish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – 1941–1945-yillarda O‘zbekiston hududida amalga oshirilgan evakuatsiya jarayonlarini, aholi harakati, ularni joylashtirish, yashash sharoitlari hamda davlat boshqaruvi tizimining faoliyatini arxiv hujjatlari asosida tizimli ravishda o‘rganishdan iborat.

Asosiy qisim

SSSR hududida harbiy harakatlar boshlanishi bilan 1941-yil iyun oyida tashkil etilgan Davlat mudofaa qo‘mitasi 1941-yil 5-iyulda “Urush davrida aholini evakuatsiya qilish tartibi to‘g‘risida” qaror qabul qildi[2]. Mazkur qarorga muvofiq, front hududlaridan aholi va sanoat korxonalarini evakuatsiya qilish boshlandi.

Dastlab evakuatsiya jarayonini tashkil etish va boshqarish O‘zbekiston Xalq Komissarligi huzuridagi Ko‘chirish bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa (1939-yilda tashkil etilgan), 1941-yil 26-sentabrdan boshlab Davlat mudofaa qo‘mitasining 7150-sonli qaroriga asosan “Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi” tashkil etildi[3].

Mazkur organ faoliyati haqida asosiy ma‘lumotlar O‘zbekiston Milliy arxivining R-314 fondida — “O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi (1938–1953-yillar)” fondida jamlangan.

Fond 423 ta arxiv ishidan iborat bo‘lib, unda evakuatsiya organlarining urush yillaridagi faoliyatini aks ettiruvchi turli materiallar mavjud. Ular qatoriga yig‘ilishlar bayonnomalari, reja hujjatlari, hisobotlar, ma‘ruzalar hamda evakuatsiya qilingan korxonalar, muassasalar va aholini joylashtirish masalalariga oid hujjatlar kiradi[4].

Hujjatlarning katta qismi ichki ko‘chirish, yangi hududlarni o‘zlashtirish (jumladan, Mirzacho‘l), ko‘chirilganlar uchun uy-joy qurilishi va davlat yordami masalalariga bag‘ishlangan.

Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan statistik materiallar kelgan oilalar va shaxslar sonini aniqlash, shuningdek ularning respublika hududlari bo‘yicha joylashtirilish xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, fond tarkibida evakuatsiya tizimining urush sharoitidagi ishlash mexanizmini yorituvchi normativ hujjatlar va yig‘ilish materiallari ham mavjud.

Shuni ta‘kidlash lozimki, mavjud arxiv materiallari evakuatsiya jarayonini to‘liq aks ettirmaydi: ayrim hududlar bo‘yicha ma‘lumotlar yetishmaydi, yig‘ilish bayonnomalari ham to‘liq saqlanmagan. Shunga qaramay, mavjud manbalar asosida evakuatsiya boshqarmasining asosiy faoliyat yo‘nalishlarini aniqlash, tashkiliy tamoyillarni tahlil qilish hamda aholi ko‘chirilishining ko‘lamini baholash mumkin[5].

R-314 fondining 37-ish materiallarida normativ harakterdagi hujjatlar qayd etilgan bo‘lib, ular orasida SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Evakuatsiya kengashining 187-sonli qarori ham mavjud. Ushbu qaror Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasining nizomi va shtat tuzilmasini tasdiqlashga bag‘ishlangan bo‘lib, unga tegishli ilovalar ham keltirilgan[6].

Boshqarma tashkiliy tuzilmasi bir nechta funksional bo‘linmalarni o‘z ichiga olgan: evakuatsiya bo‘limi, ish bilan ta‘minlash bo‘limi, maishiy ta‘minot xizmatlari, markaziy axborot byurosi hamda ma‘muriy boshqaruv.

Rahbarlik boshqarma boshlig‘i hamda uning uch nafar o‘rinbosari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, bu esa evakuatsiya jarayonlarini markazlashgan holda boshqarish imkonini yaratgan. Rahbariyat zimmasiga evakuatsiya siyosatini strategik jihatdan muvofiqlashtirish, farmoyish va ko‘rsatmalar chiqarish, shuningdek hukumat hamda Evakuatsiya kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini nazorat qilish vazifalari yuklatilgan

Shuningdek, mazkur ishning 55 varog‘ida 1941-yil 23-dekabrda Evakuatsiya kengashi tomonidan qabul qilingan 15482-CE-sonli buyruq matni keltirilgan. Mazkur hujjat bilan kolxoz xo‘jaliklarini ko‘chirish bo‘linmasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan bo‘lib, unda bo‘linmaning vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari hamda tashkiliy tuzilmasi belgilab berilgan. Ushbu buyruq Evakuatsiya kengashi raisi o‘rinbosari K. Pamfilov tomonidan imzolangan[7]. Mazkur nizom kolxoz xo‘jaliklarini ko‘chirish bo‘linmasining vazifalari, funksiyalari va faoliyat yuritish tartibini belgilab bergan, shuningdek Xalq Komissarlari Soveti va viloyat ijroiya qo‘mitalari huzuridagi mahalliy ko‘chirish organlari faoliyatini tartibga solgan.

“Evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish bo‘yicha umumlashtirilgan ma‘lumotlar” deb nomlangan 56-ishda inspektorlarning hisobot-ma‘ruza yozuvlari jamlangan bo‘lib, ular O‘zSSR bo‘yicha Evakuatsiya boshqarmasining vakolatli vakiliga yo‘llangan[8].

Shuningdek, R-314 fondining 39-ishida O‘zbekiston SSR hududiga evakuatsiya qilinishi rejalashtirilgan aholining umumiy soni to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, unda 1941-yil 13-noyabr holatiga ko‘ra O‘zbekiston SSRda evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish bo‘yicha dastlabki va qo‘shimcha rejalar ishlab chiqilgan. Hujjatda asosan respublika hududlariga jami 525 ming kishini joylashtirish ko‘zda tutilgan edi. Rejaga muvofiq, eng ko‘p evakuatsiya qilinganlar Buxoro viloyatiga joylashtirilishi belgilangan bo‘lib, dastlabki 38 ming kishilik reja keyinchalik 46 ming kishiga oshirilgan va jami 84 ming kishini qabul qilish nazarda tutilgan. Samarqand viloyatida esa dastlab 38 ming kishi joylashtirilishi rejalashtirilgan bo‘lsa, qo‘shimcha ravishda yana 43 ming kishi qabul qilinishi belgilangan va umumiy son 81 ming kishini tashkil etgan[9].

Shuningdek, Farg‘ona viloyatiga jami 79 ming, Toshkent va Andijon viloyatlarining har biriga 73 ming nafardan, Namangan viloyatiga 62 ming kishi joylashtirilishi rejalashtirilgan. Toshkent shahri alohida ma‘muriy birlik sifatida 29 ming kishini qabul qilishi belgilangan. Xorazm viloyatiga 22 ming, Surxondaryo viloyatiga 10 ming, Qoraqalpog‘iston ASSRga esa 12 ming evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish ko‘zda tutilgan[10].

Mazkur reja evakuatsiya qilingan aholini joylashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim hududlarda ko‘rsatkichlar sezilarli darajada o‘zgargan. Xususan, Samarqand viloyati evakuatsiya qilinganlarni qabul qilishning asosiy markazlaridan biri bo‘lgan.

Samarqand viloyatida evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish holati to‘g‘risidagi ma‘ruza yozuviga ko‘ra, 70 ming kishini tuman va shaharlarga, 5 ming kishini sovxozlarga hamda 4–5 ming kishini boshqa tashkilotlarga joylashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, umumiy reja taxminan 80 ming kishini tashkil etgan. Biroq amaldagi ko‘rsatkichlar ancha yuqori bo‘lgan: 1942-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra viloyatda 113 310 nafar evakuatsiya qilingan aholi joylashtirilgan[11].

Ushbu holat hududda evakuatsiya tadbirlari dastlabki rejaga nisbatan ancha keng ko‘lamda amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

Hujjatda shuningdek reja ko‘rsatkichlaridan ortiq aholini qabul qilish bir qator muammolar bilan kechgani ta‘kidlanadi. Jumladan, oziq-ovqat bilan ta‘minlash, uy-joy, tibbiy xizmat, sanitariya sharoitlari, ish bilan ta‘minlash hamda maishiy sharoitlarni tashkil etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Shunga qaramay, qabul qiluvchi tomon kelayotgan aholini rad etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan va ularni zarur yordam bilan ta‘minlashga majbur bo‘lgan.

R-314 fondining 62-ish materiallari (“Evakuatsiya qilingan fuqarolar harakati bo‘yicha ma‘lumotlar va ularni joylashtirish masalalari yuzasidan viloyat va tuman ijroiya qo‘mitalari bilan

yoʻzishmalar”) evakuatsiya qilinganlarning hududiy taqsimlanishi xususiyatlari hamda ularning harakat dinamikasini aks ettiradi.

Mazkur ish tarkibiga evakuatsiya qilingan fuqarolarning harakati boʻyicha umumlashtirilgan maʼlumotlar hamda ularni joylashtirish masalalari yuzasidan viloyat ijroiya qoʻmitalari bilan olib borilgan xizmat yoʻzishmalari kiradi.

Shu bilan birga, kelib tushayotgan aholini respublika hududlari boʻyicha taqsimlash Oʻzbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida amalga oshirilgan.

R-314 fondining 62-ish materiallari (“Evakuatsiya qilingan fuqarolar harakati boʻyicha umumlashtirilgan maʼlumotlar va viloyat hamda tuman ijroiya qoʻmitalari bilan yoʻzishmalar”) evakuatsiya jarayonining tashkiliy jihatlarini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur hujjatlar Oʻzbekiston SSR shaharlarida faoliyat yuritgan evakuatsiya punktlarining shtat tuzilmasini tiklash, shuningdek 1942-yil mart–aprel oylarida Toshkent evakuatsiya punkti orqali oʻtgan aholi harakati dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Xususan, arxiv materiallarida 1942-yil 9-oktabrda SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Davlat shtat komissiyasi tomonidan yuborilgan xat maʼlumotlari keltirilgan boʻlib, unga koʻra Toshkent, Qoʻqon, Samarqand, Kogon va Ursatevskaya stansiyasida joylashgan evakuatsiya punktlari uchun jami 58 ta shtat birligi tasdiqlangan.

Shtat jadvaliga muvofiq, Toshkent evakuatsiya punkti maʼmuriy, hisob va xizmat koʻrsatish xodimlarini qamrab olgan 9 ta shtat birligidan iborat boʻlgan. Qolgan toʻrtta evakuatsiya punktida esa har birida 11 tadan shtat birligi nazarda tutilgan boʻlib, ular tarkibiga rahbar, inspektorlar, komendant, buxgalteriya, hisob xodimlari, taʼminot va xizmat koʻrsatish xodimlari kirgan.

R-314 fondining 67-ish materiallari “Pravda Vostoka” gazetasi tahririyati, NKVD organlari va harbiy tribunal bilan olib borilgan yoʻzishmalarni oʻz ichiga oladi. Ushbu hujjatlar evakuatsiya qilinganlarni roʻyxatga olish va ular haqidagi maʼlumotlarni yuritish tartibini yoritadi. Mazkur materiallar evakuatsiya qilinganlarning hududiy joylashtirilishi, ularning kolxozlar va tumanlar boʻyicha taqsimlanishi, shuningdek davlat organlari tomonidan olib borilgan hisob va nazorat tizimini kuzatish imkonini bergan.

R-314 fondi boʻyicha umumlashtirilgan tahlil shuni koʻrsatadiki, hujjatlarning asosiy qismi 1941-yil kuzidan 1942-yil boshigacha boʻlgan davrga taalluqli boʻlib, keyingi davr materiallari nisbatan kamroq uchraydi. Bu holat evakuatsiya jarayonining dastlabki bosqichi yakunlanganligi va evakuatsiya punktlari faoliyatining toʻxtatilishi bilan izohlanadi. R-314 fondining 116-ish materiallari evakuatsiya punktlari faoliyatining davriy chegaralarini aniqlash imkonini beradi: ular 1941-yil iyul oyida faoliyat boshlagan va 1942-yil fevral oyida yakunlangan, shundan soʻng tegishli funksiyalar militsiya organlariga oʻtkazilgan[12].

Shu sababli, 1942-yildan keyingi hujjatlar ancha kam uchraydi.

R-314 fondining 7-roʻyahti (2–4-ishlar) materiallari evakuatsiya jarayonining yakuniy bosqichiga oid hujjatlarni oʻz ichiga oladi. Xususan, 2-ishda 1945-yilga oid koʻchirilganlar va evakuatsiya qilingan aholini xoʻjalik jihatdan joylashtirish rejasi hamda unga izohli yozuv keltirilgan[13].

Mazkur hujjatlarda koʻchirilgan aholini, jumladan qrim tatarlarini va Gruziyadan koʻchirilganlarni joylashtirish, ularni uy-joy bilan taʼminlash va xoʻjalik jihatdan moslashtirish masalalari koʻrib chiqilgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston Milliy arxivining R-314 fondi materiallari Ikkinchi jahon urushi yillarida Oʻzbekiston SSR hududida amalga oshirilgan evakuatsiya jarayonlarini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Fond hujjatlari orqali evakuatsiya tizimining tashkiliy tuzilmasi, aholini hududlar boʻyicha joylashtirish rejasi, davlat organlari faoliyati hamda evakuatsiya qilinganlarni ijtimoiy-maishiy jihatdan taʼminlash masalalarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston SSR urush yillarida front ortidagi muhim hududlardan biri sifatida yuz minglab evakuatsiya qilingan aholini qabul qilgan va ularni

joylashtirishda katta rol o'ynagan. Shu bilan birga, oziq-ovqat, uy-joy, sanitariya va ish bilan ta'minlash bilan bog'liq qator muammolar mavjud bo'lganiga qaramay, respublika hududlarida evakuatsiya jarayonlari davom ettirilgan.

Umuman olganda, R-314 fondi materiallari urush davridagi evakuatsiya siyosatining amaliy jihatlarini, davlat boshqaruvi mexanizmlarini hamda O'zbekiston xalqining insonparvarlik va birdamlik an'analarini yoritishda muhim tarixiy ahamiyatga ega.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Потемкина М.Н. Рыт интеграции эвакуированного промышленного оборудования в экономику уральского тыла (осень 1941 – весна 1942 гг.) // Технологос. – 2024. – № 2. – С. 51–59. DOI: 10.15593/perm.kipf/2024.2.04. Юрьев В.А. Эвакуация, осуществлённая советским народом в период Великой Отечественной войны: интернациональный аспект проблемы: дис. ... канд.ист. наук. – М., 1995. – 174 с. Куманев Г.А. Война и эвакуация в СССР (1941–1942 гг.) // Новая и новейшая история. – 2006. – № 6. Батыров А.Е. Эвакуация в Северную Осетию в 1941–1942 гг. // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-1. – URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=21107>(дата обращения: 26.03.2026). Лихоманов М.И., Позина В.Т., Финогенов Е.И. Партийное руководство эвакуацией в первый период Великой Отечественной войны. – V.: Наука, 1985. – С. 24. Ишанходжаева З.Р., Хазов В.К., Алмазова-Ильина А.Б. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом во Второй мировой войне // Вопросы истории. – 2020. – № 8. – С. 205–211.
2. Rossiya davlat ijtimoiy-siyosiy arxivi – RDSIA. 17. R. 166. I.660. V. 120–125
3. O'zMA fondlari bo'yicha yo'riqnoma.Toshkent. 1988:14
4. O'zbekiston Milliy arxivi.(O'zMA) , F. 314, R. 1, I.37, 56, 61, 62; O'zMA , F. 314, R. 7, I.2–5
5. Буриева Х.А. Документы фонда №314 УзНА как источник по изучению проблемы эвакуации населения в годы Второй мировой войны // История. Память. Люди: сб. статей VIII Междунар. науч.-практ. конф. – Алматы, 2017. – С. 241. <https://mytashkent.uz/wp-content/uploads/2017/10/Kniga-Istoriya.Pamyat.Lyudi.pdf> (дата обращения: 17.03.2026).
6. O'zMA , F. R-314, R.1, I.37
7. O'zMA , F. R-314, R.1, I.37, V.55
8. O'zMA , F. R-314, R.1, Д.56, V.116–120, 135–136, 147–154, 169, 176–182, 191–198
9. O'zMA , F. R-314, R.1, Д.39, V.279
10. O'sha yerda
11. O'zMA , F. R-314, R.1, Д.56, V.147–154
12. O'zMA , F. R-314, R.116, Д.1–37
13. O'zMA , F. R-314, R.7, Д.2–4

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Безугольный А.Ю., Бородкин Л.И. и др. Народы СССР на фронтах Великой Отечественной войны: статистическое и военно-антропологическое исследование. – 2022.
2. Безугольный А.Ю., Бородкин Л.И. История Великой Отечественной войны: современные подходы. – М., 2022.
3. Исакова М. Значение цифровых технологий в проведении генеалогических исследований об эвакуированном населении в годы Второй мировой войны // Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана. – 2022. – № 1(01). – С. 234–240. URL: <https://doi.org/10.47689/v1i01.13475> (дата обращения: 17.03.2026).
4. Сорокин А.К. (отв. ред.) Пути к победе: материалы XIII международной конференции (Екатеринбург, 21–24 июня 2021 г.). – Екатеринбург, 2021.
5. Сорокин А.К. Великая Отечественная война: новые исследования. – М., 2021.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000